



Ijtimoiy - iqtisodiy hayotda raqamli texnologiyalarning o'rni

Ilmiy rahbar: X. U. Samatov

A.F.Fozilov

TATU Samarqand filiali Kompyuter

Injineriingi fakulteti 3-bosqich talabasi:

Telefon raqami: +998978964455

e-mail: asadbekfozilov924@gmail.com

Annatatsiya: Bugungi ijtimoiy – siyosiyosiy hayotda jamiyatimiz rivojida keng qamrovli o'ringa ega sohalardan bittasi bu Raqamli texnologiyalar sohasi bo'lib , insonlar uchun o'zining be'minnat hissasini qo'shmoqda. Alohida jihatlar rivojlanish, inson manfa'atlari, taraqqiyot kabilar o'z tasdiqini topgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ijtimoiy – iqtisodiy, Raqamli iqtisodiyot, Klassik talqin.

Dunyo olimlarining ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalar iqtisodiyotga bog'liq 50 foizdan ortiq sohalarni keskin o'zgartirib yuboradi. Ushbu qarash axborot texnologiyalari va raqamli platformalar biznes modellarni keskin o'zgartirib, ularning samaradorligini vositachilarni bartaraf etishi va jarayonlarni optimallashtirishiga asoslangan. Fuqarolarning davlat organlari bilan aloqasini elektron platforma orqali aloqaga o'tkazish, ya'ni davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi



raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, bizdagi eng asosiy og’riqli muammolardan biri — korrupsiya illatiga barham beradi deyishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 5-fevral kuni tashqi iqtisodiy faoliyat tizimini isloh qilish bo‘yicha ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilishda tashqi savdo bilan bog‘liq nazorat tizimi va infratuzilmani yaxshilash, jumladan, xorijiy tajribadan kelib chiqib, bojxona postlarida nazoratni amalga oshiradigan bojxona, sanitariya, karantin, veterinariya hamda boshqa idoralar faoliyatini isloh qilish lozimligini ta’kidlagan edi. Bu sohada uzoq yillardan buyon samarali ishlar olib borilmagani, korrupsiyaning mavjudligi tashqi savdo amaliyotida muayyan qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Jahon bankining “Biznes yuritish” reytingida “Xalqaro savdo” yo‘nalishi bo‘yicha mamlakatimiz 190 ta davlat orasida 152- o‘rinda qayd etilgani ham shundan dalolat beradi.

Shu bois Prezidentimizning 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq, to‘lovlaridagi tafovutlarni aniqlashda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashga alohida ahamiyat qaratilgan. Chunki inson aralashuvi har doim manfa‘atlar to‘qnashuviga sabab bo‘lib , vakolat doirasidagi hodimlarning mansabni suv‘estimol qilish holati ko‘plab kuzatilmoqda.

Mana shunday to‘siqlar tufayli Prezidentimiz raqamli texnologiyalarni joriy qilib, inson omilini maksimal qisqartirish orqali korrupsiya va noqonuniy tovar aylanmasiga barham berish zarurligini ta’kidlamoqda. Import mahsulotlarining chegaradan to yakuniy iste’molchigacha bo‘lgan harakati bojxona hamda soliq idoralari tomonidan yagona elektron tizim orqali nazorat qilinishi kerak. Shundan kelib chiqib, mutasaddilarga ruxsatnoma va laboratoriya tekshiruvlari hujjatlarini to‘liq raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan “riskanaliz” tizimini joriy etish bo‘yicha topshiriqlar berilgan .



Hozirgi davrda biz texnologiyalar qanday qilib ommaviy xizmat ko'rsatish sohasini tubdan o'zgartirayotganini ko'ryapmiz. Vositachilarni olib tashlaydigan, mijoz va ta'minotchi o'rtasidagi aloqalarning to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilishiga olib keladigan Uber kabi yangi biznes-modellar paydo bo'lmoqda. Bu esa shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalari asta-sekinlik bilan odamlarning o'rnini egallab boradi. Xuddi mana shu holat raqamli iqtisodiyot hisoblanadi. Raqamli platformalarning rivojlanish sohasidagi yorqin misollardan biri sifatida «Alibaba» elektron savdo tizimiga ega bo'lgan Xitoy kompaniyasini keltirib o'tish mumkin.

Mamlakatimizda uzoq vaqt davomida yig'ilib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi jiddiy tizimli muammolarni hal etish, aholining munosib hayot kechirishini ta'minlash va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda, ammo bir qadar kamchiliklar ham mavjud. Jumladan quidagilar :

- iqtisodiyotning muayyan tarmoqlari va ijtimoiy soha yo'nalishlarini rivojlantirish uchun mas'ul vazirlik va idoralar faoliyatida ishonib topshirilgan tarmoq yoki sohani uzoq muddatli rivojlantirish to'g'risida tasavvur mavjud emasligi;
- iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi muammolarni hal qilish choralarini ishlab chiqishda tashabbuskorlik ko'zga tashlanmayotganligi;
- tayyorlanayotgan hujjatlar loyihalarini sifatli va har tomonlama ekspert-tahliliy o'rganishni ta'minlashga, ularning ehtimoliy oqibatlarini baholashga yetarlicha e'tibor berilmayotganligi;
- ayrim vazirliklar va idoralarning faoliyatida aholi va tadbirkorlik subyektlari manfaatlarini, iqtisodiy va ijtimoiy soha ehtiyojlarini hisobga olmagan holda idoraviy va sohaviy manfaatlarni ilgari surishda namoyon bo'layotgan eskicha yondashuvlar saqlanib qolinayotganligini aytishimiz mumkun.



Ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilish bo'yicha ishlab chiqilayotgan tashabbuslarning sifatini, olib borilayotgan islohotlar natijadorligini tubdan oshirish, amalga oshirilayotgan tadqiqotlarni islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirish hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning rolini oshirish muhim demakdir. An'anaviy sohalar modellari uchun ishlab chiqilgan qoidalar birgalikda iqtisodiyotni rivojlantirishga xalaqit bermaydi, shuningdek, iste'mol xavfsizlik muammolarini hal qilish uchun ba'zi normativ islohotlar zarur.

Raqamli texnologiyalar bir qator sohalarda rivojlanishni rag'batlantirishi mumkin:

- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va daromadlarni kattalashtirish;
- mavjud bozorlarning samaradorligini oshirish;
- bozorlar hajmini oshirish va yangi bozorlarni yaratish;
- boshqa sohalarda iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish va ishlab chiqarish omillarining umumiy ko'rsatkichidan tashqarida sifatni oshirish.

Biroq, texnologik o'zgarish sur'ati tezlashmoqda va texnologik o'zgarish ko'pincha mavjud qonunchilikni ortda qoldiradi. Bunday sharoitda asosiy vazifa ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni raqamlashtirish modellarini ishlab chiqishdan iborat. Raqamli inqilobdan faol foydalanmaslik bir qator ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar, jumladan, mamlakatlarning iqtisodiy o'sish istiqbollari, mintaqaviy raqobatbardoshlik, yuqori qiymatga ega global ishlab chiqarish zanjirlariga qo'shilish va yuqori malakali mehnatni jalb qilish kabi zararli oqibatlarga olib keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun katta qiyinchilik raqamli iqtisodiyotning qolgan qismi, qurilgan raqamli infratuzilmaning asosiy darajasini yaratmoqda



Aytish mumkinki, ulardan samarali keng ko'lamli foydalanish muammolarini hal qilmasdan, tarmoq infratuzilmasini rivojlantirmasdan turib, bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor vazifalaridan birortasini muvaffaqiyatli hal etish mumkin emas. Zamonaviy sharoitlarda menejmentga yondashuvning muhim o'zgarishi insonga va uning qaror qabul qilishdagi roliga nisbatan tubdan farq qiladi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan yangi turdagi biznes sharoitida insonning o'рни va roli ko'lamli tarzda o'zgarib bormoqda. Bunday o'zgarishlarni tahlil qilish o'zaro bog'liq bo'lgan bir butun masalalar majmuasini o'rganishni o'z ichiga oladi: mehnat talablarini o'zgartirish, ta'lim va tarbiya tizimini o'zgartirish, boshqaruv tizimiga yangicha yondashuvlar. Aholining raqamli texnologiyalar sohasidagi bilim, malaka va ko'nikmalar darajasi ushbu tendensiyalarning jamiyat hayotining turli sohalarida tarqalishi va rivojlanishida muhim omil bo'lmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bu omilini tahlil qilish uchun "inson kapitali" kategoriyasidan foydalaniladi.

Klassik talqinda inson kapitali deganda insonning mehnat jarayonida egallaydigan va foydalanadigan hamda uning iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etadigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui tushuniladi. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi sharoitida ushbu tushunchaning talqini kengayib bormoqda, raqamli texnologiyalar sohasidagi ko'nikmalarga berilgan inson kapitalida yanada muhim rol o'ynaydi. Inson kapitalining sifatini yaxshilash, ta'lim jarayonlariga odamlarni jalb qilish, raqamli texnologiyalar sohasidagi ko'nikma va malakalarni rivojlantirish raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va turli sohalarda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi deyishimiz mumkun.

Shunday qilib, rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli texnologiyalar qurish tamoyillarini ishlab chiqish maqsadida quyidagi nazariy natijalarga erishilgan:



- ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor vazifasi raqamli iqtisodiyotga o'tish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va zamonamiz muammolariga javob beradigan samarali biznes modellarini yaratishdir.
- raqamli texnologiyaning rivojlanish xususiyatlari intellektual vositalarining mavjudligi, ma'lumotlarning ortib borayotgan ahamiyati, internetning keng miqyosda tarqalishi va ma'lumotlar almashinuvining global xususiyatini o'z ichiga oladi.
- rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli texnologiyani rivojlantirish vositalari aniqlangan bo'lib, ular "ulushli texnologiyalar" ni rivojlantirish uchun raqamli platformalar, shuningdek, "cloud" texnologiyalari va yirik ma'lumotlar bazalarini qayta ishlash bilan bog'liq masalalarda ijobiy holatga erishilgan.
- raqamlashtirish sharoitida ko'nikmalarni rivojlantirish tizimlarini qurish tamoyillari shakllantirilgan bo'lib, bu rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli texnologiyaning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli texnologiyaning rivojlanishi ushbu mamlakatlar aholisining hayot sifatini yaxshilaydi, davlatlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorligini oshiribgina qolmay insonlar farovonligi uchun ham xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqori darajada rivojlangan axborot boshqaruv infratuzilmasiga asoslangan tarmoq tuzilmasini shakllantirish va intellektual resurslardan samarali foydalanish jamiyat va davlatning butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimida sezilarli o'zgarishlarni nazarda tutgan holda:

Tarmoq texnologiyalari ijtimoiy faoliyatning asosiy sohalarini: davlat va shahar boshqaruvi, biznes, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, xavfsizlik, ijtimoiy hayotni yangilashda asosiy manba sifatida raqamli texnologiyalardan foydalanish foydali yechimdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ravshanova G.M. “ Ijtimoiy falsafa “ o’quv qo’llanma .Buxoro .–2023.144 bet.
- 2 .Qosimov. S.S. Axborot texnologiyalari xaqida o’quv qo’llanma.Toshkent.- 2007.176 bet.
3. www.nasa.gov/statistics/jurnal